



BUGUNGI ADABIY JARAYONDA DRAMATURGIYA

Mahmatqulova Sug'diyona

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti O'ZMPU
Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 401- guruh talabasi
sugdiyonomakhmatkulova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist sifatida tanilgan Qo'chqor Norqobilning ijodi va uning dramaturgiya sohasiga qo'shgan hissalar haqida ma'lumotlar keltiriladi va tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Go'zal, drama, chinor, axloq, ma'naviy qoloqlik, milliy udumlar, befarqlik, teatr, drama, dramaturg.

Аннотация: В данной статье представлены и проанализированы работы Кочкора Норкобила, выдающегося журналиста Узбекистана, и его вклад в область драматургии.

Ключевые слова: Красота, драма, клен, мораль, духовная отсталость, национальные обычаи, безразличие, театр, драма, драматург.

Abstract: This article presents and analyzes the work of Kochkor Norqobil, a distinguished journalist in Uzbekistan, and his contributions to the field of dramaturgy.

Keywords: Beauty, drama, maple, morality, spiritual backwardness, national customs, indifference, theater, drama, playwright.

KIRISH

Bugungi kunimizda bolalar adabiyotida bir qator yozuvchilarimizning dramaturg sifatida yaratgan ertak va asarlari maqtovgga arzigulik holatdir. Bolalarimiz tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiluvchi, ularga ma'lum voqea - hodisalar orqali bu mavzularni ochish va oydinlab berish eng tahsinga sazovor ishdir. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist sifatida tanilgan Qo'chqor Norqobil ijodi ham aynan shu asarlar, ta'riflar qatorida turadi. Uning ijodiy cho'qqisi va boshlanishi 80-yillar oxiri va 90-yillar boshiga to'g'ri keladi. Qo'chqor Norqobil faqat yozuvchi emas, dramaturg sifatida ham faoliyat olib brogan. Ushbu maqolada dramalarining qisqacha mazmuni bilan tanishamiz.

ASOSIY QISM

O'zbek dramaturgiyasi uzoq va salmoqli tarixga egadir. Unda turli xil janrlarda ijod qilgan dramaturglar bor. Bugungi kunda dramaturg, jurnalist sifatida taniqli Qo'chqor Norqobil ijodi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Dramaturg sifatida "Zamindan olis ketma", "Dildagi dog", "Tog'lardek baland bo'l", "Taqdir sinovlari", "Ayyorgina ayollar" deb ataluvchi pyesalari allaqachon teatr sahnalarida o'z muhlislarini topib ulgurgan. Uning dramalari boshqa dramalardan o'z qat'iyati, insoniy fazilatlar bilan barchaga o'rnak bo'luvchi bugungi inosnlarning obrazlari yaratilganligi bilan farq qiladi.

“Zamindan olis ketma” dramasi zamonaviy o‘zbek dramaturgiyasida ma’naviy-axloqiy muammolarni o‘tkir va ta’sirchan talqin etgan pyesalardan biri hisoblanadi. Bu asar insonning o‘zligini anglashi, ota-ona va farzand munosabatlari hamda qadriyatlarning yemirilishi haqida og‘riqli savollarni o‘rtaga tashlaydi va ochib berishga xizmat qiladi. Dramaturg asarga bu nomni qo‘yishida ham katta ma’no bor deb o‘yladim. “Zamin” deganda faqatgina ona yerni emas, balki, o‘z uyimiz, ildizlar, milliy udum va qadriyatlarimiz, ota-onalarimizga bo‘lgan mehrimiz tushuniladi. Ushbu drama orqali insoniyatning vaqtlar va zamonlar o‘zgarishi bilan ma’naviy qashshoqlashuvi ochib berilgan. Qo‘chqor Norqobil ushbu dramada psixologizmga katta e’tibor bergan. Qahramonlarning ichki kechinmalari, monologlari orqali o‘quvchi va tomoshabin o‘zini tahlil qilishga majbur bo‘ladi. “Zamindan olis ketma” dramasi bugungi kunda o‘ta dolzarbdir. U tomoshabinni “Men kimman?”, “Ota-onam oldidagi qarzimni qay darajada ado etyapman?” degan savollar atrofida o‘ylashga chorlaydi. Asarning asosiy xulosasi shundaki, ildizidan uzilgan daraxt quriydi, zaminidan uzilgan inson esa ma’naviy o‘ladi.

Asar voqealarini o‘qish davomida Go‘zalning tabiatni, bolalar oromgohini va ma’naviy merosni asrab qolishga urinishini ko‘ramiz. Albatta bu uning jasoratli ayol ekanligidan darak beradi. U chinorni kesilishidan to‘siq qolish uchun jonini xavfga qo‘yadi. Beg‘am obrazini uning ismidanoq bilsak bo‘ladi. Ismining o‘zi uning tabiatini ochib beradi. Uning uchun hech qanday muqaddas narsa yo‘q. Chinorni esa shunchaki o‘tin sifatida deb biladi. Uning gaplaridan anglashimiz mumkinki, ayollarga nisbatan past nazar bilan qarash uning ma’naviy qashshoqligini ochib bergan. Rahim obrazi esa xatoga yo‘l qo‘yib, lekin vijdon azobi uyg‘onib, ortga qaytishga urinayotgan obraz sifatida gavdalantirilgan. Beg‘amning kesatliqlaridan anglashimiz mumkinki, dramaturg bu yerda o‘tkir sarkazmni qo‘llab ketgan: “Sen ham boshingga ro‘mol o‘rab olsang bo‘larkan. Sadqayi erkak ket!” bu nutqda aynan kinoya qo‘llangan, mardlikni tushunmaydigan, faqat jismoniy kuchni ustun qo‘yadigan kimsaning ochiq ironiya qilishi ko‘ringan.

Ushbu asarda qo‘llanilgan “Makiyonga toj chiqsa...” maqoli orqali ayol kishining ijtimoiy faolligini kamsitish va bu orqali o‘zining nohaq ekanligini yashirishga urinish harakatlari ochib beriladi. Go‘zalning “Avval meni o‘ldir” deyishi dramatik kuchni keltirib chiqaradi. Muallif bu orqali jamiyatdagi befarqlik va loqaydlik fojiasini ko‘rsatib bergan.

XULOSA

Qo‘chqor Norqobil zamonaviy o‘zbek adabiyotida inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini, jamiyatdagi ma’naviy yevrilishlarni va urush fojialarini mahorat bilan tasvirlaydigan ijodkorlardan biridir. Uning “Zamindan olis ketma” dramasi nafaqat ekologik muammo, balki inson ko‘nglidagi “zamin” - iymon va diyonatning inqirozi haqida ogohlik beruvchi ijod mahsulidir. Muallif ijodida tabiat (chinor, ko‘l, bog‘) shunchaki fon emas, balki jonli obraz darajasiga ko‘tarilgan. “Zamindan olis ketma” dramasi orqali u tabiatga qilingan tajovuzni insonning o‘z ota-onasiga, tarixiga va kelajagiga qilgan xiyonati sifatida talqin etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Norqobil, Q. (2018). Zamindan olis ketma (Dramalar to‘plami). Toshkent: “Sharq” nashriyoti.

2. Karimov, N., va boshqalar. (2020). XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
3. To‘xliyev, B. (2015). Adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent: Yangiyo‘l poligraph servis.
4. Quronov, D. (2018). Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. Toshkent: “Akademnashr”.
5. Ziyoviddinova, M. (2022). “Zamonaviy o‘zbek dramaturgiyasida ekologik muammolar talqini” (Ilmiy maqola). Til va adabiyot ta’limi jurnali.